Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxonov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellash asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O'zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	



chiqindilarni qayta ishlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish kabi tashabbuslar davlatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini o'rganishda foydalanilgan adabiyotlar chuqur va keng qamrovli bo'lib, asosiy manbalar sifatida hukumat hujjatlari, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va ilmiy tadqiqotlar xizmat qilgan.

"2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" O'zbekiston hukumati tomonidan yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha belgilangan asosiy yo'nalishlar va maqsadlarni ko'rsatadi. Ushbu hujjat mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun aniq indikatorlar va natija ko'rsatkichlarini belgilagan [2].

Taraqqiyot strategiyasi (2022–2026) iqtisodiy islohotlar va yashil o'sishni uyg'unlashtirish uchun amalga oshiriladigan qadamlarni belgilaydi. Bu strategiya inson kapitaliga sarmoya kiritish va iqtisodiy liberallashtirish kabi omillarni qamrab olgan. Ushbu rasmiy hujjatlar milliy darajada yashil iqtisodiyotga o'tishning strategik asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Ular O'zbekistonning yashil iqtisodiy transformatsiyasiga qat'iy siyosiy iroda bilan yondashayotganini ko'rsatadi [2].

Xalqaro tashkilotlar hisobotlari:

Jahon banki O'zbekistonda yashil o'sish va iqlim o'zgarishi bo'yicha siyosiy muloqotlarni va iqlim xavfi profilini taqdim etadi. Hisobotlarda iqtisodiyotning resurslarga qaramligi va iqlimga sezgirligi ta'kidlanadi [6].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning global yondashuvlari bilan O'zbekiston tajribasini taqqoslaydi.

Global Green Growth Institute tadqiqotlari yashil iqtisodiy o'sish modellarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha tavsiyalar beradi [9].

Xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari O'zbekiston uchun global tajribalarga asoslangan tavsiyalar beradi. Ular mamlakatda mavjud xavf-xatarlar va imkoniyatlarni aniq baholagan hamda tashqi moliyaviy va texnik yordam resurslarini aniqlashga yordam beradi.

Berndtsson va Tussupova, shuningdek, Tussupova va Tokhtakhodjaev tomonidan Markaziy Osiyoda suv resurslari va iqlim o'zgarishiga moslashish haqida olib borilgan tadqiqotlar O'zbekistonda yashil iqtisodiyot uchun suv resurslarini boshqarishning dolzarbligini ko'rsatadi [4].

Global Environmental Facility Markaziy Osiyodagi yashil iqtisodiyot siyosati va rivojlanish yo'llari haqida chuqur tahlil beradi. Ilmiy tadqiqotlar suv tanqisligi, yer degradatsiyasi va tabiiy ofatlar xavfi kabi muammolarni yashil iqtisodiyotning asosiy tahdid omillari sifatida ko'rsatadi. Shu bilan birga, ular moslashuvchan siyosiy va texnologik yechimlarni ishlab chiqish zaruratiga urg'u beradi [8].

Foydalanilgan adabiyotlar mamlakat ichki siyosatidan tortib, xalqaro tajriba va ilmiy tahlillargacha bo'lgan manbalarni qamrab oladi. Ushbu manbalar O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishining dolzarbligi va zaruriy chora-tadbirlarini har tomonlama yoritgan. Xalqaro tajriba va ilmiy asoslangan yondashuvlar O'zbekiston uchun yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda yo'l xaritasi sifatida xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ilmiy asoslangan va tizimli yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotning metodologiyasi quyidagi asosiy bosqich va usullardan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ekologik rivojlanish jarayoni olindi, predmeti esa yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyalari, omillari va mexanizmlari hisoblanadi. Tadqiqotda quyidagi usul va yondashuvlardan foydalanildi:

Yashil iqtisodiyotga o'tishning kompleks jarayoni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillar o'zaro aloqadorligi nuqtayi nazaridan tizimli tahlil metodi orqali o'rganildi.

O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining tarixiy bosqichlari va yashil iqtisodiyot tamoyillarining shakllanishi tarixiy-tahliliy yondashuvlar asosida tahlil qilindi.

Normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga oid strategiyasi, qonunlari va normativ hujjatlari o'rganildi (masalan, "Yashil iqtisodiyot strategiyasi 2019–2030", Taraqqiyot strategiyasi 2022–2026).

Jahon banki, UNDP, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanilib, iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlar statistik tahlil qilindi.

O'zbekiston tajribasi boshqa davlatlar – Janubiy Koreya, Germaniya, Qozog'iston kabi mamlakatlarning yashil iqtisodiy tajribalari bilan solishtirma tahlil asosida baholandi.

Yashil iqtisodiyot loyihalari va dasturlarining real natijalari (masalan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari, suv tejash texnologiyalari) empirik usullar orqali o'rganildi.

Olingan natijalar iqtisodiy nazariyalar, yashil iqtisodiyot konsepsiyalari va global ekologik strategiyalar asosida asoslangan. Ular siyosiy va iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun amaliy tavsiyalar shaklida ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot (Green Economy) – bu iqtisodiyotning barqaror va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan shaklidir. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi – tabiiy resurslarni samarali va tejamkor tarzda ishlatish, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdir. Bu iqtisodiy modelda yangi texnologiyalar, yangilanuvchi energiya manbalari va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ishlab chiqarish usullari qo'llaniladi.



Ushbu iqtisodiyot modeli tabiiy resurslar va energiya manbalarining samarali ishlatilishini ta'minlab, iqlim o'zgarishi va boshqa ekologik muammolarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat davlatlar, balki korxonalar va jamoatchilik uchun ham yangi ish o'rinlarini yaratish, barqaror biznes modellarini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratadi.

So'nggi bir necha o'n yillik davomida O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi, asosan, resurslarni qazib olish va tog'-kon sanoati hisobiga ta'minlandi. Mamlakat iqtisodiyoti hozirda dunyoda issiqxona gazlari (Greenhouse Gases) chiqindilari bo'yicha beshinchi eng intensiv iqtisodiyot hisoblanadi. Yevropa va Markaziy Osiyoda esa zaharli gazlar chiqarilishi bo'yicha yetakchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Ushbu chiqindilarning asosiy manbasi qazib olish sohasi, yoqilg'i energiyasi va og'ir sanoat tarmoqlariga to'g'ri keladi. Ammo aynan shu sohalar bo'yicha energiya samaradorligi darajasi pastligi alohida ta'kidlanishi lozim.

Dunyo tajribasidan kelib chiqib qaranganda, asosan rivojlangan mamlakatlarda energiya samaradorligi ko'rsatkichlari ancha yuqori ekani kuzatilmoqda (1-jadval):

1-jadval. Yashil iqtisodiyotga o'tish darajasi va yondashuvlar tahlili.

Mamlakat	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	Strategik yondashuv	Energiya samaradorligi (yillik%)	Asosiy hujjatlar / dasturlar	Maqsadi
Yaponiya	25.7% (2023)	Innovatsion texnologiyalar, karbon neytral	2.0%	Green Growth Strategy (2050)	2050-yilgacha karbon neytrallik
Germaniya	55% (2023)	Energiya islohoti va ekologik qonunchilik	1.8%	Energiewende, Klimaschutzgesetz	2045-yilgacha karbon neytrallik
Janubiy Koreya	8.3% (2023)	Yashil texnologiyalar va raqamli transformatsiya	1.2%	Green New Deal (2020), 2050 Net Zero Plan	2050-yilgacha karbon neytrallik
Buyuk Britaniya	47.5% (2023)	Qonuniy majburiyatlar, yashil moliya	2.4%	Green Finance Strategy, Net Zero by 2050	2050-yilgacha karbon neytrallik
O'zbekiston	25–30% (2024)	Bosqichma-bosqich islohotlar	0.5%	Yashil iqtisodiyot strategiyasi – 2030	2030-yilgacha 40% yashil energiya ulushi

Manba: BMT ning Atrof-muhit dasturi: (Yashil iqtisodiyot va Barqaror Rivojlanish) va Jahon banki statistiklari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Markaziy Osiyoning qolgan qismi singari, O'zbekiston ham iqlim o'zgarishiga juda moyildir. O'zgaruvchan iqlim uning tabiiy kapitali, qishloq xo'jaligi, yer va suv unumdorligiga tahdid soladi va tabiiy ofat xavfini kuchaytiradi. Mamlakat iqlim zaifligi bo'yicha 191 mamlakat orasida 96-o'rinni egallaydi [6]. Zilzila va toshqinlarga moyillik o'rtacha 1,4 million kishiga ta'sir qiladi va har yili deyarli 3 milliard dollar zarar yetkazadi. Mintaqaviy tadqiqot hisob-kitoblariga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasidagi rivojlanish muammolarining 70 foizga yaqini chuchuk suv tanqisligi bilan bog'liq [4].

Jahon resurslari instituti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston suv tanqisligiga eng ko'p duchor bo'lgan 25 mamlakat qatoriga kiradi. O'zgaruvchan iqlim esa bu muammoni yanada kuchaytirishi ehtimol qilinmoqda. Jiddiy suv tanqisligi va yerlarning degradatsiyasi qishloq xo'jaligi mahsuldorligi hamda oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda [10].

Bugungi kunda O'zbekiston o'zining mavjud rivojlanish modelidan o'zib chiqib, iqlim va ekologik jihatdan ehtiyotkor bo'lgan jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun noyob imkoniyatlarga ega. Tarkibiy islohotlarning jadallashuvi asosida mamlakat o'z iqtisodiyoti, aholisi va umuman yer sayyorasi uchun tabiiy resurslardan moslashuvchan, inklyuziv, barqaror va samarali foydalanishga asoslangan kam uglerodli va iqlimga chidamli yashil o'sish modelini tanlamoqda hamda yangi tarmoqlarda yangi ish o'rinlarini yaratmoqda.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida O'zbekiston hukumati mamlakatni 2030-yilga qadar daromad darajasi o'rtadan yuqori bo'lgan, sanoatlashgan davlatga aylantirish bo'yicha o'z qarashlarini bayon qilgan. Strategiyaga ko'ra, iqtisodiy liberallashtirish (jumladan, qishloq xo'jaligida), monopoliyalarni bartaraf etish, raqobatni kuchaytirish, xususiylashtirish, narxlarni barqarorlashtirish, markazsizlashtirish va yerga egalik huquqi bo'yicha islohotlar amalga oshiriladi. Inson kapitaliga investitsiyalar mamlakatning asosan yosh aholisini samarali ish bilan ta'minlashga, iqtisodiy tashabbus va innovatsiyalarni rag'batlantirishga hamda raqamli ko'nikmalarni mustahkamlashga qaratiladi [3].

2021-yilning avgustidan 2022-yilning yanvarigacha Toshkent shahrida Jahon banki va Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi tomonidan O'zbekiston hukumati bilan hamkorlikda yuzma-yuz uchrashuvlar va video formatdagi siyosiy muloqotlar tashkil etildi. Muloqotlarda iqlim bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi va mamlakatning "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayoni muhokama qilindi. Ushbu muloqotlar O'zbekiston va Markaziy Osiyoda tarmoqlararo hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi.



O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi va Jahon banki bilan hamkorlikda "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha 6 ta ustuvor yo'nalish va o'zaro bog'liq 3 ta muhim blokni belgilagan.

O'zbekiston hukumati tomonidan ishlab chiqilgan "2019–2030-yillarda Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"da mamlakat ekologik barqarorlikka erishishni asosiy maqsad sifatida belgilagan. Strategiyada keltirilgan asosiy maqsad va ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat [1]:

2030-yilga kelib yalpi ichki mahsulot (YalIM) birligiga nisbatan issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yilgi bazaviy ko'rsatkichga nisbatan 35 foizga kamaytirish;

Energiya samaradorligini 20 foizga oshirish uchun sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xavfsiz sanoat texnologiyalarini joriy etish;

Suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligida tomchilatib sug'oriladigan yer maydonlarini 1 million gektargacha kengaytirish va oziq-ovqat ekinlari hosildorligini 20–40 foizga oshirish;

Yer degradatsiyasini nolga tushirish (neytrallikka erishish);

Yashil iqtisodiyot sohasida kadrlar tayyorlash, salohiyatni oshirish, ta'limga investitsiya kiritish va xalqaro tashkilotlar bilan ilmiy hamkorlik qilish;

Binolarning energiya samaradorligini sertifikatlash tizimini joriy etish;

Ishlab chiqariladigan elektr energiyasining umumiy hajmida tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizdan yuqoriga ko'tarish, shu jumladan quyosh va shamol stansiyalari ulushini 25 foizga yoki 8 GVtga yetkazish;

100 foiz aholi va sanoat tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minoti bilan qamrab olish;

Davlat investitsiyalari va xaridlariga xalqaro va milliy "yashil" mezonlarni tatbiq etish;

Orol dengizi ekologik halokatining oqibatlarini yumshatish.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanishi barqaror taraqqiyotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishdir. Bu yo'nalish nafaqat ekologik manfaatlar, balki iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik imkoniyatlarni kengaytirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Maqolada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlar va yo'nalishlar, jumladan, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, barqaror qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash va atrof-muhitni muhofaza qilishga doir tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, yashil texnologiyalarni rivojlantirish va aholining ekologik madaniyatini oshirish masalalari ham ustuvor yo'nalish sifatida taqdim etilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining strategik yo'nalishlari chuqur o'rganilmoqda. Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlashga, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikka ham katta hissa qo'shishi kutilmoqda. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy tarkibiy elementlari sifatida ekologik xavflarni kamaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish hamda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda barqaror rivojlanish, ekologik xavflarni kamaytirish, iqlim o'zgarishiga moslashish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish davlatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylangan. Bu strategiya energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik, yashil texnologiyalarni rivojlantirish va aholining ekologik madaniyatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Uzoq muddatli istiqbolda ushbu strategiyalar nafaqat ekologik barqarorlikni, balki O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki kengroq ma'noda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyot uchun ham strategik ahamiyatga ega. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va ekologik ongni yuksaltirish orqali uzoq muddatli barqaror taraqqiyotga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019 – 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ 4477-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
3. O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami. 2022 Jahon banki 1818 H Street NW, Washington DC 20433.
4. Berndtsson, R. and Tussupova, K. 2020. "The Future of Water Management in Central Asia." Water 12 No. 8: 2241.
5. United Nations Environment Programme (UNEP) (2018). Green Economy and Sustainable Development: A Perspective from the UN Environment Programme. UNEP.
6. Uzbekistan: Climate Risk Profile. World Bank Publications. World Bank. (2021).
7. Tussupova, K., and Tokhtakhodjaev, A. (2020). "Central Asia and the Challenges of Water Resource Management: Adaptation to Climate Change." Environmental Studies Journal, 34(3), 154–167.



8. Green Economy Policies in Central Asia: Pathways to Sustainable Development. GEF. Global Environmental Facility (GEF). (2019).
9. Green Growth in Developing Economies: Approaches for Central Asia. GGGI. Global Green Growth Institute (GGGI) (2021).
10. Water Scarcity and Climate Change in Central Asia: Strategies for Adaptation. WRI Publications. World Resources Institute (WRI). (2020).
11. www.isr.uz
12. www.worldbank.org
13. www.un.org
14. www.gggi.org
15. www.thegef.org
16. www.cawater-info.net
17. www.undp.org



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>